Qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni takomillashtirish.....	1047
Sherqulov Nodir Erkin o'g'li	
Мировой опыт использования денежных и натуральных трансфертов в социальном обеспечении.....	1052
Гулноза Тохировна Самиева	
Davlat xaridlarini amalga oshirish orqali raqobatni rivojlantirish yo'llari.....	1057
Majidov Nizomjon	
Raqamli iqtisodiyot davrida kontent marketingdan foydalanish va uning bosqichlari.....	1064
Tohirjonov Ahmadjon Tohirjon o'g'li, Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna	
Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish.....	1070
Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati.....	1075
Badalov Jamshid Jamolovich	
Foyda solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budjet tizimidagi ahamiyati.....	1080
Shirinov Sabir Erkinovich	
O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari.....	1084
Anvar Eshmatov	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlarini.....	1088
Ametova Nasiba Danilovna	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	1092
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
Raxmonova Aziza Tolibovna	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
Umarov Elshod G'ulom o'g'li	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
Икромовна Ханифа Одилловна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	

**Keldiyorov Shohruh Ilyos o'g'li**

AJ "Ziraat Bank Uzbekistan" Ichki nazorat departamenti Sanksiyaviy komplaens nazorat sektori bosh mutaxassisi

TIJORAT BANKLARIDA XALQARO IQTISODIY SANKSIYALAR VA EKSPORTGA TAQIQLAR BILAN BOG'LIQ RISKLARNI BAHOLASH VA KAMAYTIRISH MATRITSASINING METODOLOGIYASI

Annotatsiya: Ma'lumki hozirgi kunda xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan qo'llanilayotgan iqtisodiy sanksiyalar va eksportga taqiqlar bo'yicha xatarlar boshqarilishidagi zaif tomonlarini samarali aniqlash, xavf-xatarni kamaytirish, tahlil qilish hamda uni qanday qilib baholash usullari keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: sanksiya, eksport, iqtisod, xavf-xatar, baholash, urush, risk, FATF, OFAC, EU, FinCen, KYC, BIS, BMT.

Abstract: It is known that methods of effective identification of weaknesses in risk management in relation to economic sanctions and export bans applied by international financial organizations, risk reduction, analysis and assessment are widely covered at present.

Key words: sanctions, export, economy, risk, assessment, war, FATF, OFAC, EU, FinCEN, KYC, BIS, UN.

Аннотация: Известно, что в настоящее время широко освещаются методы эффективного выявления слабых мест в управлении рисками в отношении экономических санкций и экспортных запретов, применяемых международными финансовыми организациями, снижения риска, анализа и его оценки.

Ключевые слова: санкции, экспорт, экономика, риск, оценка, война, ФАТФ, OFAC, ЕС, FinCen, KYC, BIS, ООН.

KIRISH

Iqtisodiy sanksiyalar – xavfsizlik yoki tashqi siyosiy masalalar bilan bog'liq ma'lum maqsadlarga erishish uchun savdo va moliyaviy operatsiyalarni cheklash yoki to'liq tugatishdir. Sanksiyalar ham alohida davlatlar, ham xalqaro tashkilotlar tomonidan mahsulot va xizmatlar, transport (port), jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar, tashkilotlarga yoki davlatlarga nisbatan qo'llanishi mumkin. Sanksiya joriy qilgan va sanksiyaga uchragan mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy bog'liqlik qanchalik yuqori bo'lsa, cheklovlar ham shunchalik samarali yechim topib, iqtisodiy ko'rsatkichlari keskin o'zgaradi.

Sanksiyalar, asosan, quyidagi maqsadlar uchun qo'llanadi:

- sanksiya qo'llanayotgan davlatning ma'lum bir sohadagi siyosatini o'zgartirish, masalan, inson huquqlari, matbuot va so'z erkinligi, diniy erkinlik tamoyillari buzilganida;
- sanksiya qo'llanayotgan davlat rejimini almashtirish orqali uning siyosatini o'zgartirish;
- harbiy harakatlarni to'xtatish (Bangladesh mustaqilligi uchun urush vaqtida AQSh Hindiston va Pokistonga nisbatan sanksiyalar kiritish orqali bunga erisha olgan);
- mamlakatning harbiy salohiyatini parchalash;
- sanksiya qo'llanayotgan davlat siyosatining boshqa muhim yo'nalishlarini o'zgartirish.

Davlatlarga qarshi sanksiya e'lon qilish necha yillardan beri mavjud. Tarixdagi birinchi iqtisodiy sanksiya Qadimgi Yunonistonda qayd etilgan. Eramizdan avvalgi 432-yilda Afina hukmdorlari Megara viloyati savdogarlariga Afina portlari va bozorlariga kirishni taqiqlashgan. Bu qonli Peloponnes urushi boshlanishiga sabab bo'la olgan.

Xitoy davlati bilan munosabatda bo'lgan yirik davlatlar vaqti-vaqti bilan uning iqtisodiyotiga zarba berish va ta'sirini kamaytirish maqsadida ipak matoli liboslarini kiyishni taqiqlagan.



Ikkinchi jahon urushi boshlanishidan oldin Yugoslaviya, Gretsiya, Boliviya, Paragvay va Italiya jamoaviy iqtisodiy sanksiyalarga duchor bo'lgan.

Sovuq qurolli urush davrida sanksiyalar kutilgan samarani bermadi, sababi bu siyosat G'arbiy yoki Sharqiy davlatlar bloklari tomonidan bir vaqtning o'zida qo'llab-quvvatlanmagan. Ikkala blok tomonidan ham qo'llab-quvvatlangan yagona sanksiyalar faqat ikki marotaba ko'zda tutilgan: Rodeziya va Janubiy Afrikaga nisbatan sanksiyalar qo'llanilgan va ikkala holatda ham ular yetarlicha natija bermagan.

Uzoq muddatli bir tomonlama sanksiyalarning eng taniqli namunasi AQShning Kubaga nisbatan 1960–1962-yillarda boshlangan va hozirgacha davom etayotgan embargosidir. AQSh kompaniyalariga Kuba bilan har qanday iqtisodiy aloqalarni maxsus ruxsatsiz amalga oshirish taqiqlangan.

Rossiya-Ukraina o'rtasidagi harbiy kelishmovchiliklar hamda bu jarayonga G'arb mamlakatlarining aralashuvi jahon iqtisodiyotidagi pandemiyadan so'ng yana bir jiddiy o'zgarishlar xalqaro savdo tizimida iqtisodiy muammolarni keltirib chiqmoqda. Bunga AQSh, Yevropa Ittifoqi, Kanada, Buyuk Britaniya hamda boshqa davlatlarning birgalikdagi Rossiyaga nisbatan joriy etayotgan keng ko'lamdagi sanksiyalarini misol keltirishimiz mumkin.

Iqtisodiy sanksiyalar va eksportga taqiqlar bilan bog'liq xatarlarni baholash matritsasining metodologiyasi, ushbu metodologiya asosini FATF xalqaro standartlari hamda xorijiy tajribalar, bankning xorijiy vakil banklarining riskka asoslantirilgan siyosati talablari asosida, shuningdek, quyidagi hujjatlar asosida ishlab chiqildi:

- FATF Risk-Based Approach Guidance for the Banking Sector, 2014-y.¹;
- FATF ko'rsatmalari (Ommaviy qirg'in qurollarini moliyalashtirishning tarqalishi xavfini baholash va yumshatish to'g'risida), 2021-y.²;
- Bazel bank nazorati qo'mitasining hujjati: "Jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha", 2014-y.³;

Risklarni baholash (aniqlash)ning birinchi bosqichida asosiy e'tibor axborot to'plashga qaratiladi va quyidagi axborotni o'z ichiga oladigan ma'lumotlar to'plami tayyorlanadi:

- tashqi savdo operatsiyalarni amalga oshiruvchi mijozlar soni va ularning faoliyat turlari (mahsulot-xizmatlar) hamda kontragent-kontragentning benefitsiar mulkdori va ularning banki;
- iqtisodiy sanksiyalar qo'llanilgan mamlakatlar bo'yicha xalqaro operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumot;
- yuqori riskli mijozlar operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar to'plami.

Mazkur metodologiya asosida iqtisodiy sanksiyalar va eksportga taqiqlarning bankka xos risklarini aniqlash va baholash quyidagi to'rtta risk mezonlari bo'yicha o'tkaziladi:

- Mijozlar (mijozlar-kontragent-kontragentning benefitsiar mulkdori va ularning faoliyat turlari bo'yicha);
- Eksport va import qilinayotgan mahsulot va xizmatlar;
- Geografik "joylashuv" (kontragent va uning benefitsiar mulkdorini joylashgan mamlakatlar va rezidentligi mavjud bo'lgan hudud bo'yicha) xususiyatlari;
- Kontragentning banklari hamda vakillik banklari bo'yicha;
- Korrespondent banklardagi ko'rib chiqish maqomidagi mablag'lar riski bo'yicha.

Iqtisodiy sanksiyalar va eksportga taqiqlar bilan bog'liq risklari (Yuqori-O'rta-Quyi)ni baholash matritsasi asosida tegishli xavflar darajalari va baholash kombinatsiyasiga qarab aniqlanadi.

Iqtisodiy sanksiyalar va eksportga taqiqlar bo'yicha xatarlar riskini boshqarilishidagi zaif tomonlarni samarali aniqlash va baholash xalqaro moliyaviy sanksiyalar bilan bog'liq xatarlarni boshqarish tizimi va aniqlangan risklarni minimallashtirish uchun resurslardan samarali foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishda yordam beradi.

Xatarlar risklarining baholanishda va ularni boshqarishga doir talablar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- risk darajasini o'rganish, tahlil qilish, aniqlash, baholash, monitoringini o'tkazish, boshqarish, hujjatlashtirish va kamaytirish;
- risk darajasini belgilash hamda risk turi va darajasiga qarab tegishli choralar ko'rish.

Risk darajasi mijoz tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat turlari va operatsiya ishtirokchilarini hisobga olgan holda, mijoz tomonidan taqdim qilingan axborot-hujjat, mijozni lozim darajada tekshirish natijalari, risk omillari (mijozlar toifalari va faoliyat turlari-xizmatlari, mijozlarning benefitsiar mulkdori, geografik hududlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan boshqa omillar) asosida, shu jumladan, mijoz tomonidan taqdim qilingan axborotni o'rganish va tahlil qilish asosida aniqlanadi va baholanadi.

Iqtisodiy sanksiyalar va eksportga taqiqlar bilan bog'liq xatarlarni baholash matritsasi

Tijorat banklari o'zining iqtisodiy sanksiyalar va eksportga taqiqlar qo'llanilishining oldini olish dasturi doirasida baholangan riskni minimal yoki maqbul darajaga tushirish uchun tegishli choralarni ishlab chiqish

1 FATF Risk-Based Approach Guidance for the Banking Sector

2 FATF Risk-Based Approach Guidance for the Banking Sector

3 Norma.uz



uchun sanksiyalar riskini aniqlash, baholash-tahlil qilish, boshqarish va yumshatish bo'yicha riskka asoslangan yondashuvni qo'llaydi.

Bankning sanksiyaviy risklarini boshqarishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Iqtisodiy sanksiya va eksportga taqiqlarga rioya qilish funksiyasini takomillashtirish;
- Nazorat funksiyasining muvozanati va muvofiqligini rivojlantirish;
- Bankka nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan xatarlar darajasi va murakkabligini hisobga olgan holda qo'yilgan vazifalarni samarali bajarish imkonini beruvchi sanksiya xatarlarini boshqarishning zamonaviy tamoyillarini ijro etish;
- Xalqaro moliyaviy tashkilotlarida eng yaxshi amaliyot sifatida qabul qilinishi mumkin bo'lgan sanksiya risklarini boshqarish yondashuvlarini tatbiq etish;
- Sanksiya bilan bog'liq bo'lgan bankning risk-appetitini minimallashtirish;
- Qonun hujjatlaridagi talablarga, shu jumladan, xalqaro va ichki me'yoriy hujjatlar talablar va amaliyotiga, nazorat qiluvchi organlarning talablariga hamda umumqabul qilingan standartlarga rioya qilish.

Riskka asoslangan yondashuv quyidagi asosiy elementlardan iborat:

- bankning tijorat faoliyati ta'minlanadigan umumiy yo'nalish (kontekst)ni yaratish. Bunga mijozlarning tashqi savdo operatsiyalari va ularning ishtirokchilarini hamda xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlarni aniqlash kiradi;
- risklarni aniqlash;
- risklarni baholash;
- risklarni boshqarish (minimallashtirish (yumshatish), nazorat mexanizmlari, kunlik tekshiruvlar).

Yuqoridagi elementlar amalda quyidagilarni bajarish orqali amalga oshiriladi:

- **Tijoriy faoliyatga xos risklarni baholash:** Ichki nazorat boshqarmasi Sanksiyaviy komplaens sektori quyida keltirilgan toifalardan kelib chiqib, bankning tijoriy faoliyatida duch kelishi mumkin bo'lgan xalqaro iqtisodiy sanksiyalar bilan bog'liq risklarni baholaydi. Bular mijoz turlari va faoliyati, mahsulot va xizmatlar, geografik risklarni aniqlashni o'z ichiga oladi.

- **Risklarni kamaytirish (yumshatish):** Iqtisodiy sanksiyalar va eksportga taqiqlar bilan bog'liq risklarni baholashni o'tkazishdan maqsad Bank duch kelishi mumkin bo'lgan sohaga oid risk(xavf)larni aniqlash va kamaytirishdan iboratdir. Risk(xavf)larni bartaraf etish va kamaytirish uchun Bank quyidagi tadbirlarni amalga oshiradi:

1. Mijoz va ularning kontragentlarini lozim darajada tekshirish.
2. Avtomatlashtirilgan monitoring tizimi.
3. Xodimlarni o'qitish va malakasini oshirib borish.

- **Mijoz turlari va faoliyati bo'yicha baholash:** Mijozning riskini baholash tashqi savdo operatsiyalarni amalga oshiruvchi mijoz va uning kontragenti-benefitsiar mulkdorlarini lozim darajada tekshirish natijasida olingan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Lekin, mijozning to'liq risk darajasi mijoz hisobvaraqa ochib, operatsiyalarni amalga oshirgandan keyingina aniq bo'lishi mumkin. Shundan kelib chiqib, tashqi savdo operatsiyalar amalga oshiruvchi mijozlarning amaliyotlarini monitoring qilish va doimiy tekshirish Bankning riskka asoslangan baholashning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Mijozlarga nisbatan risklarni baholashni yetarli darajada amalga oshirish uchun har bir mijoz bir nechta risk parametrlari yoki jihatlariga qarab baholanadi. Ularning har biri uchun bir nechta xavf omillari yoki ko'rsatkichlari mavjud, ularning har biri o'ziga xos xavf vazniga ega bo'lishi mumkin: yuqori darajadagi xavf, o'rta darajadagi xavf yoki quyi darajadagi xavf. Mijoz riskini umumiy baholash uchun quyidagilar bilan bog'liq bo'lgan xavf parametrlari asosida baholanadi va baholash matritsasida ushbu faktorlar asos qilib olingan:

O'rta darajadagi xavf aniqlangan taqdirda mijozlar tomonidan taqdim etilgan tegishli qo'shimcha ma'lumotlar va tahlillar asosida "Quyi" darajadagi risk deb yoki "Yuqori" darajadagi risk deb qaror qabul qilinadi.

- **Risklarni profilashtirish:** Riskka asoslangan yondashuv quyidagi iqtisodiy sanksiyalar bilan bog'liq risklarni baholashni o'z ichiga oladi:

1. Mijozlar va uning kontragenti-benefitsiar, mulkdori-benefitsiar banki;
2. Mahsulotlar va xizmatlar;
3. Geografik joylashuv;
4. Tashqi savdo bilan bog'liq bo'lgan mijoz va uning kontragenti faoliyatiga taalluqli bo'lgan har qanday boshqa xavf elementlari, ayniqsa, ularning faoliyatining hajmi va murakkabligi.
5. Risklarni profilashtirishdan asosiy maqsad bankka mijozlarning ish munosabatlari to'g'risida aniq tushunchalarni berish va natijada operatsiya ishtirokchilarini lozim darajada tekshirish uchun zarur bo'lgan doimiy monitoringni ta'minlashdir. Barcha risklarning elementlarini to'liq ko'rib chiqish ish munosabatlarining risk profilini birlashtiradi.

- **Risk matritsasi va skoring:** Risklar aniqlangandan so'ng, ushbu risklar risk matritsasi asosida quyidagicha baholanadi:



1-jadval: Risk ballari matritsasini shakllantirish

Risk bahosi	Risk darajasi
1-2	Quyi
2-3,5	O'rta
3,5 -5	Yuqori

Risk matritsasida sodir bo'lish ehtimoli va oqibatlar ta'siri o'lchovlaridan foydalanishda risk ballari matritsasini shakllantirishga imkon beradi.

2-jadval: Risk appetitasini aniqlash

Risk darajasi	Tavsif	Appetit nazorat o'lchovi
Quyi	Voqea ehtimoli past	Risk olish mumkin, tranzaksiyalar amalga oshirilishi mumkin
O'rta	O'rtacha va katta ehtimol bilan xavf mavjud, ta'siri katta emas yoki sezilarli ta'sir etishi mumkin	Ushbu ehtimol darajasini aniqlashtirish uchun mijozdan kerakli hujjatlar so'raladi hamda o'rganib chiqiladi. O'rganish jarayonida xavf ta'siri unchalik sezilarli darajada bo'lmaganligi aniqlanganda, tranzaksiyalarni amalga oshirish mumkin.
Yuqori	Xavf juda yuqori	Operatsiyaning turiga qarab qaror qabul qilinadi. Import operatsiyalari (kontragent mijoz va uning banki, tovar va xizmatlar sanksiya ostida bo'lganligi aniqlanganda) bo'yicha xavf darajasi yuqori, deb baholangan taqdirda tranzaksiyalarni amalga oshirish mumkin. Eksport operatsiyalari (kontragent mijoz va uning banki, tovar va xizmatlar sanksiya ostida bo'lganligi aniqlanganda) bo'yicha xavf darajasi yuqori deb baholangan taqdirda tranzaksiyalarni amalga oshirish mumkin emas.

- **O'z Mijozingni Bil ("KYC"):** risk skoring natijasidan kelib chiqib, lozim darajada tekshirishni amalga oshirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi kundagi dolzarb bo'lib kelayotgan moliyaviy sanksiyalar, sanksiyaga tushgan davlatlar, shaxslar, tovarlar va xizmatlar ro'yxatlari bilan tanishib borish sanksiya nazoratini to'g'ri amalga oshirilishi uchun juda muhim bir jarayon hisoblanadi. Shu munosabat bilan Bank xodimlari tomonidan sanksiya talablariga amal qilishlari uchun mijozlarga bevosita xizmat ko'rsatuvchi xodimlarga, keyinchalik xodimlar o'z mijozlariga moliyaviy sanksiyalar to'g'risida keng qamrovli tushuntirish berishlari, xalqaro moliyaviy tashkilotlar, shu jumladan, Yevropa Ittifoqi tashkiloti, AQShning Savdo va G'aznachilik vazirliklari, Buyuk Britaniya tomonidan amalga kiritilgan moliyaviy va sektoral sanksiyalariga amal qilish bo'yicha maslahat, ko'rsatmalar berib borishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Генеральная Ассамблея ООН/ Резолюция 51-й сессии (1996–1997 годы) // <https://www.un.org/ru/ga/51/docs/51res.shtml>, дата обращения 23.10.2019.
2. Морозов В. Санкции/ Инфографика РСМД/ РСМД. – М: НП РСМД. 2017
3. Соколов Р. Н. Экономические санкции, их эффективность в условиях глобального мира // Международный школьный вестник. – 2017. – № 3–1. – С. 112–116.
4. Суханова И. Ф., Лявина М. Ю. Экономические санкции: содержание, цели, мотивы, эффективность/ Аграрный научный журнал. – 2018. – С. 88–93. – № 4.
5. Экономические санкции // <http://csrjournal.com/13856-ekonomicheskie-sankcii.html>, дата обращения 23.10.2019.
6. Sokolov R. N. Economic sanctions, their effectiveness in the context of global world // the international school Herald. – 2017. – No. 3–1. – Pp. 112–116. (InRuss.)
7. Restrictive Measures in Respect of Actions Undermining or Threatening the Territorial Integrity, Sovereignty and Independence of Ukraine // Official Journal of the European Union. March 17. P. 16–21.
8. Hille K., Weaver C., Thompson Chr. (2014). Financial Window Closes for Moscow Businesses // Financial Times. July 29.
9. The Economist (2014). Sanctions on Russia: This Is Going to Hurt. August 2.
10. <https://www.fatf-gafi.org> – FATF Risk-Based Approach Guidance for the Banking Sector.
11. <https://djrc.dowjones.com> – Dow Jones Risk Center.
12. <https://eur-lex.europa.eu> – Access to European Union Law.
13. <https://www.federalregister.gov> – the Daily Journal of USA Government.
14. <https://sanctionssearch.ofac.treas.gov> – Office of foreign Assets Control.
15. <https://cbu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.
16. <https://www.ziraatbank.uz>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.